


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


4/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

4/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 4, aprel

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Berdiyeva R.K.	Ingliz tili nutq aktlarida har xil emotsional ma'nolarni ifodalovchi frazeologik birliklarning o'ziga xos pragmatik xususiyatlari	4
Jabborova A.J.	Euphemisms in different cultures	8
Kazakov I.R.	Frazeologizmlarda til va madaniyat aloqadorligi	12
Qurbonova E.Sh.	O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishining qonun matnlarida yangi yuridik terminlarning paydo bo'lishiga ta'siri	16
Salixova N.N.	Ingliz va o'zbek tilida ko'chimlarning tadqiq darajasi	21
Юсупова М.Р., Нигора Элбобо кизи	Современные тенденции в развитии русской лингвистики: теоретические и прикладные аспекты»	25
Тагаева А.Р.	Системные параметры нуклеологии в русскоязычном дискурсе	30
Джураева З.Р.	Антропонимы как маркеры гендерной идентичности в русских и узбекских пословицах	36
Zuvaytova S.N.	Etymology and translation of some english phraseological units	41
Yusupova M.B.	The role of educational dictionaries in intercultural communication	45
Xolmonova I.A.	O'zbek-turk parallel korpusini yaratishning metodologik yondashuvlari	49
Jumayeva N.G'., Umarova F.M.	Ingliz tili maqollarining pragmatik xususiyatlari	57
To'rayeva D.A.	Hududiy xoslangan birliklarning fonetik va leksik tahlili	61
Tangriyeva L.N.	Ilmiy matnlarda kogeziya kategoriyasini ifodalovchi vositalarning ayrim turlari haqida (fransuz tili misolida)	66
Sindarov K.T.	She'riy matnning badiiy voqelanishining lingvistik asoslari	70
Qambarova M.M.	Ingliz va o'zbek tillarida arxitektura sohasiga oid terminlar semantikasi	74

Vakhidova F.S., Sadullayrva U.Sh.	Ingliz va o‘zbek tillarida ziyoratgoh nomlarining etimologik tahlili	78
Рустамова Д.А.	Энциклопедик луғат мақоласида лингвистик атамаларнинг лексикографик талқини	82
Rashidova S.I.	Lexical semantic pragmatic features of terms related to family upbringing in comparison with english and uzbek languages	89
Gadoeva M.I., Rahmonova J.M.	Social media – a means of showing the relevance of traditional proverbs	93
Qobilova M.Sh.	Ingliz va o‘zbek tillarida media matnlarining lingvokognitiv tahlili	98
Qarshiboyeva A.S.	Xitoy tilida muzeyshunoslik-arxeologiyaga doir terminlarning o‘ziga xos xususiyatlari	102
Qambarova M.M.	Arxitektura va qurilish sohasiga oid terminlarning ijtimoiy leksikaga ta’siri	106
Rasulov Z.I., Oripova S.J.	Til evolutsiyasi va o‘zgaruvchanligi nazariyasining o‘rganilishi	111
Narzullayeva F.O., Tuymuradova R.R.	Difficulties in translating english somatic proverbs into uzbek	115
Narzullayeva F.O., Mukhamedova G.M.	The role of phraseological units related to the human head in communication in uzbek language	121
Narzullayeva F.O., Shodiyeva M.Sh.	Pragmatic functions of somatisms in daily communication	125
Namozova K.B.	Ingliz madaniyatida to‘y marosimlari bilan bog‘liq milliy udumlarning o‘ziga xosligi	131
Mirxanova G.R.	O‘zbek tilshunosligida terminologik nazariyaning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	135
Madraximova M.A.	“Qo‘rquv” ifodalovchi til birliklarining psixolingvistik jihatdan nazariy o‘rganilishi	139
Ibragimova G.M.	Tilshunoslikda subnorma va uni yuzaga keltiruvchi hodisalar tadqiqi	144

TIL EVOLUTSIYASI VA O‘ZGARUVCHANLIGI NAZARIYASINING O‘RGANILISHI

Rasulov Zubaydullo Izomovich,

Buxoro davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori,

Buxoro, O‘zbekiston

ORCID ID 0000-0003-0554-1319

z.i.rasulov@buxdu.uz

Oripova Sabrina Jalol qizi,

Buxoro davlat universiteti magistranti

oripovasabrina02@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola til rivojlanishidagi tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillarining nazariy asoslarini o‘rganishga qaratilgan. Tejamkorlik tamoyili tilning samaradorligini oshirish va ortiqcha elementlarni qisqartirish jarayonlarini ifodalaydi, ortiqchalik esa tilda barqarorlik va tushunarlikni ta’minlaydi. Ushbu tamoyillar tilning asosan strukturaviy, fonetik va semantik hamda morfologik darajalarida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqola til evolyutsiyasidagi ushbu ikki tamoyilning ahamiyatini ochib beradi va ularning kommunikativ samaradorlikka ta’sirini ko‘rsatadi. Til evolyutsiyasi jarayonida tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillari tilning moslashuvchanligini va o‘zgarishlarni boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: til evolyutsiyasi, tejamkorlik tamoyili, ortiqchalik tamoyili, qisqarish, tilshunoslik, fonetik tejamkorlik, semantik tushunarlik, redundant birliklar, kognitiv iqtisod tamoyili, kommunikativ samaradorlik, til o‘zgarishlari.

THE STUDY OF THE THEORY OF THE EVOLUTION AND VARIABILITY OF LANGUAGE

Abstract. This article is focused on exploring the theoretical foundations of the principles of economy and redundancy in language development. The principle of economy refers to processes that enhance language efficiency by eliminating unnecessary elements, while redundancy ensures stability and comprehensibility in language. These principles are mainly manifested at the structural, phonetic, semantic, and morphological levels of the language. This article highlights the importance of these two principles in language evolution and demonstrates their impact on communicative effectiveness. In the process of language evolution, the principles of economy and redundancy play a crucial role in maintaining language adaptability and managing changes.

Keywords: language evolution, principle of economy, principle of redundancy, reduction, linguistics, phonetic economy, semantic clarity, redundant elements, principle of cognitive economy, communicative effectiveness, language changes.

ИЗУЧЕНИЕ ТЕОРИИ ЭВОЛЮЦИИ И ИЗМЕНЧИВОСТИ ЯЗЫКА

Аннотация. Данная статья направлена на изучение теоретических основ принципов экономии и избыточности в развитии языка. Принцип экономии подразумевает процессы, направленные на повышение эффективности языка за счет устранения ненужных элементов, в то время как избыточность обеспечивает стабильность и понятность языка. Эти принципы проявляются главным образом на структурном, фонетическом и семантическом, а также морфологическом уровнях языка. В данной статье подчеркивается важность этих двух принципов в эволюции языка и демонстрируется их влияние на коммуникативную эффективность. В процессе эволюции языка принципы экономии и избыточности играют решающую роль в поддержании адаптивности языка и управлении изменениями.

Ключевые слова: Эволюция языка, принцип экономии, принцип избыточности, сокращение, лингвистика, фонетическая экономия, семантическая ясность, избыточные элементы, принцип когнитивной экономии, коммуникативная эффективность, языковые изменения.

Kirish. Til – insoniyatga berilgan eng ulug‘ ne’mat va u madaniy merosining ajralmas qismi. Har bir til o‘zining noyob evolutsion jarayoniga ega bo‘lib, bu jarayon turli zamonlarda va turli madaniyatlarda o‘ziga xos shakllanishni ko‘rsatadi. Ushbu maqolada tilning evolyutsiyasi va o‘zgaruvchanligi nazariyasining muhim jihatlarini ko‘rib chiqiladi.

Til evolutsiyasi bu – insoniyatning turli davrlarida va turli geografik hududlarda yuz bergan murakkab jarayon. Bu jarayon tilning ichki va tashqi omillari bilan bog‘liq bo‘lib, har bir omil tilning shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Fonetik, morfologik, sintaktik va semantik o‘zgarishlar tilning evolutsion jarayonida qanday ahamiyatga ega ekanligini tushunish uchun, tilshunoslikning asosiy nazariyalari tahlil qilinadi.

Til tizimlarida tejamkorlikning ahamiyati – bu tilning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, uning samarali va oson ishlashini ta‘minlaydi. Tejamkorlik tamoyili tilning barcha darajalarida, jumladan, fonetik, morfologik, sintaktik va semantik qatlamlarda o‘z ifodasini topadi. Til resurslarining minimallashtirilishi va samarali foydalanish ehtiyoji, tilning o‘zgaruvchan va moslashuvchan tizim sifatida ishlashini ta‘minlaydi.

Fonetik tejamkorlik – til tizimining birinchi bosqichi bo‘lib, bu jarayon tovush resurslarini qisqartirish yoki yo‘qotishni anglatadi. L.V.Shcherba fonetik qisqarishni nazariy jihatdan tahlil qilib, ba‘zi tovushlarning yo‘qolishi yoki o‘zgarishi tilning soddalashtirishiga olib kelishini ta‘kidlaydi. Misol uchun, rus tilidagi so‘zlarning qisqarishi yoki tovushlarining tushirilishi, tilning ishlashini tezlashtiradi va ma‘lumot uzatish jarayonini soddalashtiradi. Shcherbaning tahliliga ko‘ra, bu jarayonlar fonetik tejamkorlikning asosiy elementlaridan biridir[1, 10].

Bundan tashqari, morfologik qisqarish ham tejamkorlik jarayonining yana bir ko‘rinishidir. Morfologik qisqarishlar so‘zlarning qisqartirilgan shakllarida o‘z ifodasini topadi. Misol sifatida, ko‘plab tilshunoslar zamonaviy tillarda ko‘p ishlatiladigan qisqartmalarni tahlil qilganlar. Masalan, ingliz tilida “TV” (television), “ATM” (automated teller machine) kabi qisqartmalar tilning soddalashtirishiga va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. J. Eltzarov morfologik qisqarishlar va abbreviaturalar tilni soddalashtirish va kommunikativ samaradorlikni oshirishning muhim vositalaridan biri sifatida ko‘rsatgan. Abbreviaturalar faqat tilning samaradorligini oshirmaydi, balki ko‘p hollarda foydalanuvchilarga tez va aniq ma‘lumotlarni yetkazish imkoniyatini ham beradi[2, 2].

Shuningdek, sintaktik qisqarishlar til evolutsiyasining muhim qismi bo‘lib, murakkab sintaktik tuzilmalarni soddalashtirish orqali nutqni tez va samarali qiladi. Masalan, kundalik muloqotda "Men siz bilan uchrashishni xohlayman" kabi to‘liq gap o‘rniga "Siz bilan uchrashmoqchiman" shakli ishlatilishi odatiy hol. Shuningdek, "Agar vaqtim bo‘lsa, men sizga qo‘ng‘iroq qilaman" gapining "Vaqtim bo‘lsa, qo‘ng‘iroq qilaman" tarzida qisqartirilishi ortiqcha birliklarni olib tashlash natijasida yuzaga keladi. Bundan tashqari, "Kitob stol ustida turibdi" jumlasida ko‘pincha "Kitob stol ustida" shaklida ifodalanadi, chunki fe‘lni tushirib qoldirish ham ma‘no aniq bo‘lishini ta‘minlaydi. Bunday soddalashtirishlar og‘zaki va yozma nutqni ixchamlashtirish bilan birga, tilning tezkor va samarali ishlashiga yordam beradi.

Asosiy qism. Ortiqchalik til tizimining barqarorligi va samaradorligini ta‘minlaydigan asosiy tamoyillardan biridir. Tilning ortiqcha elementlari, nafaqat sintaktik tuzilmalarda, balki semantik jihatdan ham tilning aniq va tez ishlashiga xizmat qiladi. L.V.Shcherba ortiqcha birliklar yordamida tushunish jarayonini soddalashtirishni ta‘kidlagan. Ortiqchalik til tizimining shakllanishida yordam beradi, chunki ortiqcha elementlar tilning yanada aniq ishlashini ta‘minlaydi. U, ma‘lumotning to‘liq uzatilishini, to‘g‘ri va aniq tushunilishini ta‘minlaydi[3,10]. Misol uchun, “ta‘kidlash juda muhim” jumlasida “juda” so‘zi bo‘lmasa ham, fikr mohiyati saqlanib qoladi. Biroq, “juda” so‘zining qo‘shilishi fikrning ahamiyatini kuchaytiradi. Shu bilan bir qatorda, texnik qo‘llanmalar yoki ko‘rsatmalarda ortiqcha so‘z va izohlar matnni yanada tushunarli qiladi. Shu orqali foydalanuvchilar matndan to‘liq va aniq foydalanish imkoniga ega bo‘ladi.

Bundan tashqari, F. de Sossyur ortiqchalikni nafaqat tilning tuzilishini mustahkamlash, balki semantik shaffoflikni oshirish sifatida ko‘rgan. U ortiqchalikni til tizimining ichki mustahkamligi sifatida talqin qiladi, bu esa tilni har xil muloqot sharoitlarida aniq ishlashiga yordam beradi. Shuningdek, ortiqchalik, tilning sintaktik darajasidagi murakkab tuzilmalar orqali amalga oshadi va ko‘pincha ma‘lum bir shakllar yoki strukturaviy qoidalar orqali o‘z ifodasini topadi[4, 7]. Misol uchun, ko‘p tillarda redundant ifodalar mavjud. Ingliz tilida, “She is the one who is going to the store” jumlasida qisqartirilgan holda “She is going to the store” shakliga keltirilishi mumkin. Lekin, birinchi variantda ortiqcha elementlar mavjud bo‘lib, ular jumlaning aniq va ravon tushunilishiga yordam beradi. Shu tarzda, ortiqchalik, tilning murakkab tuzilmalarida noaniqliklarni bartaraf etadi va ma‘lumot uzatishda aniqlikni ta‘minlaydi degan xulosaga kelish bejiz emas.

Shuningdek, kognitiv tejamkorlik tamoyili, tilning murakkab tizimlarini soddalashtirish va kognitiv xatoliklarni oldini olishda ham muhimdir. Ushbu tamoyil tilning faqat strukturaviy yoki kommunikativ jihatlar bilan bog‘liq emas, balki inson miya va psixologik jarayonlari bilan ham bog‘liqdir. Filologiya fanlari doktori, professor, Z.I.Rasulov ham kognitiv tejamkorlik tamoyilini tilning samaradorligini oshirish va ma‘lumotni soddalashtirishni ta‘kidlab o‘tadi. Kognitiv tejamkorlik insonning xotira va aqliy jarayonlari uchun optimallashtirilgan til birliklarining shakllanishini ta‘minlaydi. Bu tamoyil, tilning minimal resurslar bilan maksimal samaradorlikni ta‘minlaydi[5, 6].

Kognitiv tejamkorlikning psixologik va nevrologik jihatlarini tilning inson miyasi bilan qanday aloqada ishlashini o'rganishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon tilning rivojlanishi va soddalashtirilishi orqali kognitiv resurslarni tejash hamda ularni samarali boshqarish imkoniyatini yaratadi. Tilning qisqarishi va soddalashtirilishi natijasida inson miyasi axborotni qayta ishlash jarayonida ortiqcha yuklamalardan xalos bo'lib, tezkor va aniq muloqot qilishga erishadi. Misol uchun, turli tillarda keng qo'llaniladigan qisqartmalar, abbreviaturalar va sintaktik soddalashtirishlar muloqotni yanada samarali qiladi, chunki ular minimal vaqt va energiya sarflab, aniq va tushunarli axborot almashish imkonini beradi. Ushbu hodisaning nevrologik asoslari shuni ko'rsatadiki, inson miyasi ortiqcha ma'lumot yukini kamaytirish uchun avtomatik tarzda til birliklarini optimallashtiradi, bu esa kognitiv jarayonlarning samaradorligini oshirish bilan birga, tezkor fikrlash va kommunikativ moslashuvchanlikni ham qo'llab-quvvatlaydi.

Tilni soddalashtirish va qisqartirish, odamlarning tez va samarali qarorlar qabul qilishini osonlashtiradi. Bu jarayonlar, odatda, tilning kommunikativ samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Kognitiv tejamkorlikning psixologik va nevrologik jihatlarini tilning inson miyasi bilan qanday aloqada ishlashini o'rganishga qaratilgan. E.D.Polivanov fonemalar nazariyasida tilning qisqarishi va soddalashtirilishi jarayonlarini o'rganadi. Tilning qisqarishi va soddalashtirilishi, kognitiv resurslarni tejash va samarali ishlatish imkoniyatini yaratadi [6, 3]. Misol uchun, ko'plab tillarda qisqartirilgan shakllar, foydalanuvchilarga minimal vaqt va kuch bilan aniq ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ingliz tilida "ASAP" (As Soon As Possible) qisqartmasi tez va samarali muloqot uchun qo'llaniladi. O'zbek tilida esa "tezda" yoki "darhol" kabi so'zlar qisqa va mazmunli shaklda ishlatiladi. Bunda kognitiv tejamkorlik tilning tez va samarali ishlashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, sintaktik qisqarishlar ham til evolyutsiyasining muhim qismi hisoblanadi. Sintaktik qisqarishlar, murakkab sintaktik tuzilmalarni soddalashtiradi va bu, o'z navbatida, tilni tez va samarali ishlatish imkonini yaratadi. N.S.Trubetskoy o'z asarida tilning fonetik tizimlarini o'rganish va ularning evolyutsiyasi haqida gapiradi. Tilning soddalashtirilgan sintaktik shakllari orqali ma'lumotlar tezda uzatiladi va tushuniladi [7, 8]. Masalan, "Men kitob o'qiyman" iborasi orqali murakkab grammatika talab qilinmay, sodda va aniq ma'lumot uzatiladi. Shuningdek, "U keldi" kabi qisqa va sodda jumlar orqali ham ma'lumotlar tezda tushuniladi.

Ortiqchalik til tizimining barqarorligi va samaradorligini ta'minlaydigan asosiy tamoyillardan biridir. Tilning ortiqcha elementlari, nafaqat sintaktik tuzilmalarda, balki semantik jihatdan ham tilning aniq va tez ishlashiga xizmat qiladi. L.V.Shcherba ortiqcha birliklar yordamida tushunish jarayonini soddalashtirishni ta'kidlagan. Ortiqchalik til tizimining shakllanishida yordam beradi, chunki ortiqcha elementlar tilning yanada aniq ishlashini ta'minlaydi. U ma'lumotning to'liq uzatilishini to'g'ri va aniq tushunilishiga zamin yaratadi [8, 10].

Shu tarzda ortiqchalik tilning murakkab tuzilmalarida ortiqcha elementlarning qisqarishi nafaqat kognitiv tejamkorlikni oshiradi, balki noaniqliklarni bartaraf etib, ma'lumot uzatishda aniq va samarali tizimni shakllantiradi. Ushbu jarayon ayniqsa Chomskining sintaktik nazariyalarida muhim o'rin tutadi, chunki u tilning strukturaviy jihatlariga chuqur e'tibor qaratgan va sintaktik tuzilmalarning tejamkorligi hamda samaradorligi haqida ko'p bora ta'kidlagan. Shuningdek, ingliz tilida qisqartirilgan gap tuzilmalari, masalan, "I have gone" o'rniga "I've gone" yoki "Do not" o'rniga "Don't" kabi shakllar kognitiv resurslarni tejash va muloqotni soddalashtirishga xizmat qiladi. Shu kabi tahlillar til tizimlarining funksional jihatlarini yoritishda Chomskining paradigmatic yondashuvlari naqadar ta'sirchan bo'lganini ko'rsatadi, chunki uning nazariyalari nafaqat tilshunoslik, balki psixolingvistika va nevrologiya sohalarida ham chuqur o'rganilgan. [9, 11].

I.A.Boduen de Kurtene til evolyutsiyasini chuqur o'rganib, tilning o'zgaruvchanligi va iqtisodiyliги haqida ko'p yillar davomida tahlil olib borgan. Uning asarlarida tilning o'zgaruvchan xususiyatlari va iqtisodiy tamoyillari qator muhim elementlar sifatida ko'rsatib o'tilgan. Misol uchun, de Kurtene "Internal and External Linguistics" asarida tildagi fonetik o'zgarishlarni o'rganib, bu o'zgarishlarning tilning soddalashuviga va tejamkorligiga qanday hissa qo'shishini ko'rsatadi. Uning tahlillarida, tilning ichki rivojlanishi va tashqi omillar bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar tildagi qisqarish va soddalashish jarayonlarini tushuntiradi [10, 1].

Bundan tashqari, O.Yespersen ham tilning rivojlanishida tejamkorlik va ortiqchalik tamoyillarining roliga katta e'tibor qaratgan. Yespersen, tilning sintaktik va semantik darajalarida tejamkorlik tamoyillarini tahlil qilib, bu tamoyillar tilning samarali ishlashiga qanday ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Masalan, Yespersenning "The Philosophy of Grammar" asarida tilning qisqarishi va ortiqchalik tamoyillari orqali tildagi ortiqcha elementlar aniqlik va ravonlikni ta'minlaydigan usullar sifatida ko'rsatilgan. U misol sifatida ingliz tilidagi redundant ifodalarning aniq va ravon tushunilishi uchun qanday yordam berishini ko'rsatadi [11, 9]. Misol uchun, ingliz tilidagi "past history" iborasi redundant hisoblanadi, lekin u orqali "history"ning faqat o'tmish haqidagi ma'lumotlarni anglatishi ta'kidlanadi. Yoki "free gift" iborasi redundant bo'lsa-da, bu o'rinli foydalanishda aniq ravon va aniqlikni beradi.

Xulosa. Shunday qilib, til evolyutsiyasi va o'zgaruvchanligi nazariyasining o'rganilishi tilning strukturaviy va semantik evolyutsiyasini, shuningdek, inson miya va kommunikativ jarayonlarga bo'lgan aloqasini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Iqtisodiylik, qisqarish, ortiqchalik va kognitiv tejamkorlik tamoyillari, tilning samarali ishlashini ta'minlovchi muhim omillardir. Bu tamoyillar til tizimlarining evolyutsiyasi va o'zgarishiga xizmat qiladi, shu bilan birga, kommunikativ samaradorlikni oshirishga ham yordam beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Boduen de Kurtene I. A. *Internal and External Linguistics*. 1934, Germaniya.
2. Eltazarov J. *Tildagi tejamlilik tamoyili va qisqaruv*. 2005, Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 67-70-betlar.
3. Polivanov E. D. *Fonemalar nazariyasi*. 1931, Toshkent: Maorif, 89-bet.
4. Rasulov Zubaydullo Izomovich, (2024). *Balance of economy and redundancy in transmission*. *International Journal Of Literature And Languages*, 4(10), 26–28. <https://doi.org/10.37547/ijll/Volume04Issue10-06>
5. Rasulov, Z. (2024). *Ortiqchalik va tejamkorik tamoyillarining o'zaro munosabati*. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 8-9. <https://doi.org/10.2024/tw831c49>
6. Rasulov Z. I. *The Principle of Cognitive Economy as an Important Factor*. 2019, Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 88-90-betlar.
7. Sossyur F. de *Course in General Linguistics*. 1916, Paris: Payot, 60-bet.
8. Trubetskoy N. S. *Principles of Phonology*. 1939, Praga: Travaux, 56-bet.
9. Yespersen O. *The Philosophy of Grammar*. 1924, London: Allen and Unwin, 94-98-betlar.
10. Shcherba L.V. *Essays on Phonetics and Phonology*. 1931, Moskva: Nauka, 124-128-betlar.
11. Chomski N. *Aspects of the Theory of Syntax*. 1965, Cambridge: MIT Press, 34-bet.